


“Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining q a r o r i

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 fevraldagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-6155-son Farmoni ijrosini ta‘minlash, shuningdek, “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirishni izchil davom ettirish orqali hududlarning yo‘l-transport infratuzilmasi, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari hamda ijtimoiy soha ob‘ektlarini rivojlantirish va shu asosda aholining farovonligi hamda turmush darajasini yanada yuksaltirish maqsadida:

1. Belgilansinki, **“Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari** (keyingi o‘rinlarda – Dasturlar) doirasida:

a) qishloqlar (mahallalar) ro‘yxati **quyidagi mezonlar** asosida shakllantiriladi:

olis va tabiiy-iqlim sharoiti og‘ir hududlarda joylashganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlariga aholi tomonidan yo‘l-transport infratuzilmasi, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari va ijtimoiy soha ob‘ektlari bo‘yicha kelib tushgan **murojaatlar soni**;

aholi va tadbirkorlarda o‘zlari istiqomat qilayotgan (joylashgan) qishloq (mahalla) hududini **birgalikda obodonlashtirish yuzasidan tashabbuslarning** mavjudligi;

“Turizm mahallasi”, “Turizm qishlog‘i” yoki **“Turizm ovuli”** maqomiga egaligi;

b) qishloqlarda (mahallalarda) amalga oshiriladigan qurilish, ta'mirlash va obodonlashtirish ishlarini hamda ularni moliyalashtirish uchun talab etiladigan mablag'larni **tuman (shahar) hokimliklari mahalla fuqarolar yig'inlari raislari bilan birgalikda** tegishli tuman (shahar) xalq deputatlari Kengashlarida **himoya qiladi**;

v) har bir qishloqni (mahallani) **rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari** tegishli qishloqdagi (mahalladagi) mavjud imkoniyatlar, aholining uzoq yillar davomida shakllangan salohiyati, tadbirkorlik muhiti va "o'sish nuqtalari" inobatga olingan holda belgilanadi;

g) mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan:

aholini **toza ichimlik suvi** bilan ta'minlash, joylarda **oqova suv xandaqlari** va **sanitariya inshootlarini** barpo etish;

elektr ta'minotini, jumladan, transformatorlar va nimstansiyalar holatini yaxshilash, **aloqa va axborotlashtirish tizimini** modernizatsiya qilish, aholiga **gaz yoqilg'isi** uzluksiz yetkazib berilishini tashkil etish;

ichki avtomobil yo'llari, piyodalar yo'laklari, transport to'xtash bekatlari va boshqa yo'l infratuzilmasini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash, yo'lbo'ylarini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish;

qishloq va suv xo'jaligi infratuzilmasini rivojlantirish, irrigatsiya tizimlarini barpo etish, sizot suvlar sathini pasaytirish, ariqlarni tozalash va foydalanishdan chiqib ketgan yerlarni foydalanishga kiritish;

ijtimoiy soha ob'ektlari, jumladan, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, turizm ob'ektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar amalga oshiriladi.

2. Dasturlarni **2021 yilda** amalga oshirish chora-tadbirlari doirasida **tuman (shahar) xalq deputatlari Kengashlari** tomonidan:

mazkur qarorning 1-bandi "a" kichik bandida belgilangan mezonlar asosida **har bir tuman va shahardan** qurilish, ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshiriladigan jami **397 ta qishloq va mahalla tanlab olinganligi**;

yo'l-transport va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini, ijtimoiy soha va boshqa infratuzilma ob'ektlarini **qurish-ta'mirlash ishlarining manzilli dasturlari tasdiqlanganligi**

ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2021 yilda barcha tuman va shahardagi jami **7 794 ta qishloq va mahallada** umumiy qiymati **20,8 trillion сўм**лик qurilish, ta'mirlash va obodonlashtirish ishlarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi:

“Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirish, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish hamda aholini uy-joy bilan ta'minlash chora-tadbirlarini **moliyalashtirish manbalari 1-иловага** muvofiq;

“Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida **ichki yo'llar, ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv tizimi, elektr energiyasi hamda gaz ta'minoti ob'ektlarini** qurish va ta'mirlash parametrlari **2, 2a-2n-иловаларга** muvofiq;

“Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida **irrigatsiya, aloqa va axborotlashtirish tizimlarini yaxshilash, sport va bolalar maydonchalari** barpo etish, **qishloq va mahallalar ko'chalarini obodonlashtirish** parametrlari **3, 3a-3n-иловаларга** muvofiq;

“Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida **ijtimoiy soha ob'ektlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari komplekslari, mahalla gazarlarini qurish va ta'mirlash hamda uy-joy fondini yaxshilash** parametrlari **4, 4a-4n-иловаларга** muvofiq;

“Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida **jamoat transporti, maishiy chiqindilar bilan ishlash tizimi va bozor infratuzilmasini rivojlantirish** parametrlari **5, 5a-5n-иловаларга** muvofiq;

ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv tizimi ob'ektlarini qurish va ta'mirlash parametrlari **6, 6a-6n-иловаларга** muvofiq;

ichki yo'llarni qurish va ta'mirlash parametrlari **7, 7a-7n-иловаларга** muvofiq;

past kuchlanishli elektr tarmoqlarini yangilash va modernizatsiya qilish parametrlari **8, 8a-8n-иловаларга** muvofiq;

turizm infratuzilmasini rivojlantirish parametrlari **9, 9a-9n-иловаларга** muvofiq;

kichik sanoat zonalari faoliyatini rivojlantirish parametrlari **10-иловага** muvofiq;

tuman markazlari va shaharlarning me'moriy qiyofasini zamonaviylashtirish va obodonlashtirish parametrlari **11, 11a-11n-иловаларга** muvofiq;

irrigatsiya ob'ektlarini qurish va ta'mirlash parametrlari **12, 12a-12n-illovalar**ga muvofiq;

gaz ta'minoti tizimini yaxshilash parametrlari **13, 13a-13n-illovalar**ga muvofiq;

aloqa va axborotlashtirish tizimini rivojlantirish parametrlari **14, 14a-14n-illovalar**ga muvofiq;

ijtimoiy soha ob'ektlarini qurish va ta'mirlash parametrlari **15, 15a-15n-illovalar**ga muvofiq;

fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari komplekslari, mahalla guzarlari hamda madaniyat markazlarini qurish va ta'mirlash parametrlari **16, 16a-16n-illovalar**ga muvofiq;

jamoat transporti va maishiy chiqindilar bilan ishlash infratuzilmasini rivojlantirish parametrlari **17, 17a-17m-illovalar**ga muvofiq;

qishloq va mahallalar ko'chalarini obodonlashtirish parametrlari **18, 18a-18m-illovalar**ga muvofiq;

sport va bolalar maydonchalari barpo etish parametrlari **19, 19a-19m-illovalar**ga muvofiq;

uy-joy fondini yaxshilash parametrlari **20, 20a-20n-illovalar**ga muvofiq tasdiqlansin.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripovga, zarur hollarda, Dasturlar parametrlariga Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining takliflari asosida **o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish** huquqi berilsin.

4. Belgilab qo'yilsinki:

a) Dasturlar doirasida:

ijtimoiy soha, ichimlik suvi ta'minoti, oqova suv tizimi hamda yo'l-transport infratuzilmasi ob'ektlari uchun ajratiladigan mablag'lar tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi **“Obod qishloq” va “Obod mahalla” jamg'armalari orqali** moliyalashtiriladi;

elektr energiyasi, tabiiy gaz va telekommunikatsiya tarmoqlarini qurish-ta'mirlash ishlarini

moliyalashtirish tegishincha “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ, “Hududgazta’minot” AJ, telekommunikatsiya operatorlari va provayderlarining **o‘z mablag‘lari hisobidan** amalga oshiriladi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar) hokimliklari tomonidan tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar) xalq deputatlari Kengashlarining qarorlariga asosan, Dasturlarga tasdiqlangan loyihaoldi va loyiha hujjatlari hamda moliyalashtirish manbalari mavjud bo‘lgan **qo‘shimcha loyihalar kiritilishi** yoki **istiqbolsiz loyihalar chiqarib tashlanishi** mumkin;

v) ob‘ektlarning loyiha-smeta hujjatlariga asosan Dasturlar doirasida ajratilgan **mablag‘lar yetishmagan taqdirda**, ushbu ob‘ektlarni qurish-ta‘mirlash bilan bog‘liq qo‘shimcha xarajatlar tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar **mahalliy byudjetlarining qo‘shimcha manbalari mablag‘lari** hisobidan qoplanadi;

g) **2021 yil 1 noyabrga** qadar **Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda viloyatlar markazlarida davlat-xususiy sheriklik shartlari** asosida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi komplekslarini Qurilish vazirligi tomonidan ma‘qullangan **namunaviy loyihalarga** muvofiq barpo etish, shuningdek, tegishli infratuzilma qurish uchun zarur yer uchastkalari tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlarining qarorlariga muvofiq tadbirkorlik sub‘ektlariga **to‘g‘ridan-to‘g‘ri (tanlov savdolarini o‘tkazmasdan) shartnomalar asosida haq undirilmasdan** ajratilishi mumkin.

5. Dasturlar doirasida amalga oshiriladigan **qurilish-ta‘mirlash ishlari bo‘yicha buyurtmachilar** etib:

ichimlik suvi ta‘minoti ob‘ektlari (ijtimoiy sheriklik loyihalari bundan mustasno) bo‘yicha – **“Suv ta‘minoti va oqova suv ob‘ektlari qurilishi bo‘yicha injiniring kompaniyasi”** unitar korxonasi, sohadagi **ijtimoiy sheriklik loyihalari** bo‘yicha – **Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi**;

ichki avtomobil yo‘llari (Toshkent shahri ko‘chalari bundan mustasno) bo‘yicha – Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi huzuridagi **“Mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati”** davlat unitar korxonasi, **Toshkent shahri ko‘chalari** bo‘yicha – Toshkent shahar hokimligining **“Yagona buyurtmachi xizmati”** injiniring kompaniyasi;

elektr energiyasi, tabiiy gaz va aloqa tarmoqlari bo‘yicha – tegishincha **“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ**

, **“Hududgazta’minot” AJ**, telekommunikatsiya operatorlari va provayderlari hududiy filiallari;

ijtimoiy soha ob’ektlari va markazlashgan mablag’lar hisobidan amalga oshiriladigan boshqa ob’ektlar bo’yicha – Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi **“Yagona buyurtmachi xizmati”** injiniring kompaniyalari hamda vazirlik va idoralar huzuridagi buyurtmachi tashkilotlar belgilansin.

Shunday tartib o’rnatilsinki, unga muvofiq:

Dasturlar doirasida **ichki yo’llarga qum-shag’al aralashmasini yotqizish** bilan bog’liq ishlarni bajarish to’g’risida tuziladigan shartnomalarda **30 foiz miqdorida oldindan to’lovni** amalga oshirish nazarda tutiladi;

Dasturlar bilan qamrab olingan hududlardagi gaz iste’molchilariga **elektron gaz hisoblagichlarini o’rnatish** hamda ushbu iste’molchilarni tabiiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimiga ulash **navbatsiz** amalga oshiriladi.

6. Moliya vazirligi (T.A. Ishmetov):

a) Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining talabnomalariga muvofiq:

Dasturlar doirasida Qoraqalpog’iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari orqali **“Obod qishloq” va “Obod mahalla” jamg’armalariga** O’zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan jami **1 trillion c’ymgacha** mablag’lar;

Dasturlarda ko’zda tutilgan tadbirlarni o’z vaqtida moliyalashtirish uchun Qoraqalpog’iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga O’zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan **joriy yil yakuniga qadar qaytarish sharti** bilan bosqichma-bosqich **1 trillion so’mgacha byudjet ssudasi mablag’lari** ajratilishini ta’minlasin;

b) mahalliy byudjetlar mablag’lari, shuningdek, boshqa manbalar hisobidan qurilgan va davlat ixtiyoriga topshirilgan **ijtimoiy soha ob’ektlarini saqlash** bilan bog’liq xarajatlarni **2021 yilda** – tegishli sohaga ajratilgan mablag’lar doirasida moliyalashtirsin, **2022 yildan** – Davlat byudjeti parametrlarida zarur mablag’larni nazarda tutsin.

7. Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar

hokimlari:

2021 yil 15 aprelga qadar qishloq va mahallalarda yo'l-transport va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini, ijtimoiy soha va boshqa infratuzilma ob'ektlarini qurish-ta'mirlash ishlarining manzilli dasturiga muvofiq ob'ektlarning **loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilishini** ta'minlasin. Bunda, buyurtmachilar tomonidan loyiha tashkilotlarini eng yaxshi takliflarni tanlab olish natijalariga ko'ra aniqlashga ruxsat berilsin;

Dasturlar doirasida amalga oshiriladigan ishlar hajmi va smeta qiymatlarining asossiz ravishda oshirib yuborilmasligi ustidan **nazorat o'rnatsin**;

Dasturlarga kiritilgan **qishloqlar va shahar mahallalarining bosh reja sxemalari va batafsil rejalashtirish loyihalari** hududiy loyiha tashkilotlari tomonidan oldindan ishlab chiqilishini va ular bilan bog'liq tadbirlarning tegishli **mahalliy byudjetlar mablag'lari hisobidan** moliyalashtirilishini ta'minlasin;

joylarda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, yakka tartibdagi va ko'p kvartirali uylarni, mahalla binolari va guzarlarini ta'mirlash, piyoda yo'laklarini barpo etish, tungi yoritish uskunalarini o'rnatish, shuningdek, boshqa infratuzilma ob'ektlarini qurish hamda ta'mirlash ishlarini moliyalashtirishga **aholi va tashabbuskor tadbirkorlar mablag'lari, homiylik va xayriya mablag'lari, tijorat banklari kreditlari** va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan mablag'lar jalb qilish choralarini ko'rsin;

har oy yakuni bilan "Obod qishloq" dasturini amalga oshirishni muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika komissiyasi (A.J. Ramatov), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi hamda Qurilish vazirligiga **Dasturlar doirasida bajarilgan ishlar va moliyalashtirilgan mablag'lar bo'yicha axborot** kiritib borsin.

8. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (A.M. Boboyev), Moliya vazirligi (Q.X. Taparov):

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda Dasturlar doirasidagi loyihalarning hududlarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi hamda turizmni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan, shuningdek, xorijiy kreditlar hisobidan moliyalashtirilayotgan **loyihalar bilan o'zaro bog'liqligini** ta'minlasin. Bunda, qishloq va mahallalarning yo'nalishlari va "o'sish nuqtalari"dan kelib chiqib, Davlat byudjeti parametrlarida nazarda tutilgan **3 trillion cym**gacha mablag' hududlardagi infratuzilma loyihalarini qo'shma moliyalashtirishga yo'naltirilsin;

manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda **2022 yil va kelgusi yillar** uchun “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini tegishli yilga mo’ljallangan O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi bilan **bir vaqtda va uyg‘unlashgan holda** shakllantirsin hamda ularni moliyalashtirish uchun Davlat byudjeti parametrlarida zarur mablag‘larni nazarda tutsin.

Bunda, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari **har yili 20 aprelga** qadar tegishli tuman (shahar) xalq deputatlari Kengashlarining qarorlariga asosan kelgusi yil uchun “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlariga kiritiladigan **qishloq va mahallalar ro‘yxatini**, shuningdek, ularda amalga oshiriladigan **qurilish-ta‘mirlash ishlarining manzilli dasturlarini** Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligiga kiritish choralari ko‘rsin.

9. Energetika vazirligi (A.S. Sultonov) Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (Sh.A. Vafayev) bilan birgalikda **uch oy muddatda past va o‘rta kuchlanishli elektr tarmoqlarini yangilash va modernizatsiya qilish dasturini** amalga oshirish uchun xorijiy kredit mablag‘larini jalb qilish choralari ko‘rsin.

10. Transport vazirligi (I.R. Mahkamov), Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi (A.A. Abduvaliyev) Favqulodda vaziyatlar vazirligi (A.H. Qo‘ldoshev), Davlat geologiya qo‘mitasi (B.F. Islamov), Davlat ekologiya qo‘mitasi (A.I. Maksudov), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda **bir hafta muddatda yo‘l qurilishi bilan bog‘liq xarajatlarni maqbullashtirish**, shu jumladan, Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi tizimidagi korxonalarni **arzon qum-shag‘al xom ashyosi bilan ta‘minlash** yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritsin.

11. Adliya vazirligi (R.Q. Davletov) **ikki hafta muddatda** Dasturlar doirasida tanlab olingan qishloq va mahallalarda **davlat xizmatlari markazlari filiallarini** tashkil etish bo‘yicha manzilli dasturni tasdiqlasin.

12. Qurilish vazirligi (B.I. Zakirov) Dasturlar doirasida ob‘ektlarni qurish- a‘mirlash bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlarining belgilangan tartibda davlat ekspertizasidan o‘tkazilishini va qurilish-montaj ishlari sifatli bajarilishi ustidan tizimli **davlat nazorati amalga oshirilishini** ta‘minlasin.

13. “Obod qishloq” dasturini amalga oshirishni muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika komissiyasi (A.J. Ramatov) **muntazam ravishda** hududlarga chiqib, Dasturlar ijrosini tahlil qilsin va **har oyda** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga axborot kiritib borsin.

14. Bosh prokuratura (A.Yu. Mavlonov), Hisob palatasi (B.T. Turabov) yo'l-transport va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini, ijtimoiy soha va boshqa infratuzilma ob'ektlarini qurish-ta'mirlash ishlarini moliyalashtirish uchun ajratiladigan mablag'lardan maqsadli hamda samarali foydalanilishi yuzasidan doimiy nazorat o'rnatsin va **har oy yakuni** bo'yicha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga axborot kiritib borsin.

15. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil etishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib Bosh vazir o'rinbosarlari A.J. Ramatov, J.A. Qo'chqorov, Bosh prokuror N.T. Yo'ldoshev, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari belgilansin.

Qaror ijrosini **har oyda** muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh. Nizomiddinov zimmasiga yuklansin.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga **har oy yakuni** bo'yicha axborot berib borilsin.

O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti

Sh.MIRZIYOEV

Toshkent shahri,

2021 yil 2 aprel